

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

KONFUTSIYLIK DININING SHAKLLANISH JARAYONI VA ASOSIY GO'YALARI

Azamova Sitora

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasasi o'qituvchisi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Ubaydullayev Jasur

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi
Otamurodov Doniyor

Konfutsiylik (asoschisi milod. av. 551-479-yillarda yashagan xitoylik Kun-Futszi) – ijtimoiy-axloqiy g`oyalari bilan mashhur bo`lgan Xitoydagagi etakchi falsafiy mакtablardan biri. Konfutsiylikda inson tarbiyasida murosa, sabr-qanoat, kechirimlilik, bag`rikenglik g`oyalari muhim o`rin tutishiga e'tibor qaratilgan. Konfutsiylik – Xitoydagagi axloqiy-siyosiy ta'lomit. Keyinchalik 3 asosiy falsafiy-diniy oqimlardan biri (daosizm va buddizm bilan birga). Konfutsiylik ta'lomitidagi “Shaxs o`zi uchun emas, balki jamiyat uchun shaxsdir” degan g`oyasi hozir ham o`z ahamiyatini yo`qotgan emas.

Konfutsiy falsafiy g`oyalaringin ijodiy rivoji, uning muqobil ko`rinishi bo`lgan moizm ta'lomitida o`z ifodasini topgan (asoschisi Mo-tszi bo`lib, miloddan avvalgi 479-431 yillarda yashagan). Bu mакtab nomayondalari etika muammolariga alohida e'tibor berib, axloqiy me`yorlarning bajarilishi uchun qattiqqo`l hokimiyat lozim, deb hisoblagan. Konfutsiy yoshlar tarbiyasida ma`naviy kamolotning o`rnini mutlaqlashtiradi. Shu bilan birga, u ijtimoiy tenglik bo`lishi uchun jamiyatning barcha a`zolari uchun umumiy majburiy me`yorlar, hamma uchun manfaatli mezonlar zarur deb hisoblaydi.[1]

Keyinchalik konfutsiylik mакtabi vakillari bu ta'lomitni rivojlantirdi:

- 1) Men-tszi ta'lomitiga ko`ra: hukmdorning shaxsiy manfaatidan mamlakat, xalq manfaati ustunligi hamda noinsof podshoni ag`darib tashlashga xalq huquqi borligi g`oyasini shakllantirdi. Ijtimoiy tenglik osmonning irodasi mavjudligi bilan asoslanadi.
- 2) Syun-tszi ta'lomitiga ko`ra, “osmon” – tabiatning bir qismi bo`lib, u ongga ega emas. Inson narsalarning yashash qonunlari (“dao”) ni bilib olgach, ulardan o`z manfaati uchun foydalanishlari lozim.

Konfutsiylikda qonun inson manfaatlariga xizmat qilmog`i kerak, deyiladi.

Konfutsiylik milodiy I – asrda davlat ta'lomitiga aylandi. IX asrda buddizm, XI asrda daosizm ustidan to`la g`alaba qozondi. Bunga, ayniqsa, Sun davri (960-1279) da neokonfutsiylik rivojlanganligi tufayli erishildi.

Konfutsiy o`gitlari:

Yagona va eng mudhish xato avvalgi xatolarni tuzatmaslikdir.

Olijanob er to`qqiz narsa haqida o`ylashni kanda qilmaydi. Bular ravshan ko`rmoqlik, aniy eshitmoqlik, odob bilan muomala qilmoqlik, samimiyo so`zlashmoqlik, ehtiyyotkorlik ila harakatda bo`lmoqlik, qahru g`azab oqibatini yodda tutmoqlik, odillikni unutmaslik hamda imkoniyat tug'ilganda foyda olmoqlik.

Konfutsiy Tszi-Chun ismli shogirdining “Davlatni qanday boshqarmoq darkor?” degan savoliga qisqagina javob bergandi: “Davlatni to`g`ri boshqarmoq uchun hukmdor –

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

hukmdorligicha, amaldor – amaldorligicha, ota – otaligicha, o`g`il – o`g`illigicha qolmog`i lozimdir”.[2]

Konfutsiy fikricha olamdag'i barcha mavjudot singari insonning taqdiri ham samoviy qudratga bog'liq. Shuning uchun odamlarning oliyjanobligi yoki tubanligi, oliy yoki past tabaqaga mansubligini o'zgartirib bo'lmaydi. Binobarin, podshoh - podshohligicha, fuqaro - fuqaroligicha, ota - otaligicha, farzand -farzandligicha qolishi kerak. Bunday g'oya, ko'ramizki, mavjud tuzumni saqlab qolishni nazardatutar edi. Shu bilan birga, Konfutsiy ideal, oliy inson, asl, mard kishi konsepsiyasini ishlab chiqqan. Bu kotsepsiyaga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqyei orqali emas, balki odamiylik, adolatgo'ylik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli yuksak kamolotga yetishuvi mumkin. Konfutsiyning falsafiy ta'limoti keyinchalik Xitoyda hukmron dinlarning biriga aylanganva Konfutsiychilik deb nom olgan dinning asosi bo'ldi. Konfutsiychilik manbai – Konfutsiy izdoshlari yozgan «Lung-Yuy» (Suhbatlar va mulohazalar, miloddan oldingi VI asr) kitobidir. Konfutsiychilik Lao-Szi ta'limotidan tubdan farq qiladi. U jamiyatni ijtimoiy larzalardan asrab qolishga intilgan feodal amaldorlarning qarashlari va manfaatlarini himoya qilgan. Konfutsiychilikning maqsadi - xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashdir. Bu din aqidasiga ko'ra, jamiyatda osmondan yuborilgan «Jeng» (Insonparvarlik) qonuni amal qiladi. Bu qonunni o'rganib olish uchun inson «Li»ga, ya'ni ijtimoiy axloq normalariga, qoidalari, an'anaviy marosimlarga amal qilishi, o'zining jamiyatdagi darajasiga qarab ish tutishi zarur. Konfutsiychilik belgilangan diniy tartiblarga qattiq amal qilishni talab etadi. Konfutsiyning

o'zi hayotligida diniy tartiblarni sidqidildan bajargan. Endilikda, har bir oilaning o'z ibodatxonasi bo'lishi zarur bo'ldi. har bir oila o'z ibodatxonasiga ajdodlarning timsoli bo'lgan «Chju» tasvirini joylashtiradi. Uning yoniga qurbanliklarni qo'yadi va diniy marosimlarni ijro etadi. Konfutsiychilikda ijtimoiy-axloqiy masala alohida o'rinn egallaydi. Shu ma'noda Konfutsiy

ta'limotini inson xatti-harakati hayoti me'yorlari haqidagi ta'limot deyishi ham mumkin edi.

Insonlar o'rtasidagi hayot tarzi an'anaviy besh munosabatdan iboratligi qayd etilgan:

- davlat boshlig'i bilan amaldorlar o'rtasidagi munosabat;
- ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabat;
- er bilan xotin o'rtasidagi munosabat;
- katta va kichik aka-ukalar o'rtasidagi munosabat;
- do'st-birodarlar o'rtasidagi munosabat.

Bu ta'limotda shunday qadriyatlar ham borki, unga qoyil qolmay iloj yo'q. Birgina misol keltiramiz:

O'g'il ota-onasi oldida quyidagi beshta vazifani bajarish shart edi:

1. har doim ota-onani to'la hurmat qilish;
2. ularga eng suyukli taomni keltirish;
3. ular betob bo'lib qolganlarida chuqr qayg'urish;
4. ular vafot etganlarida yurak-yurakdan achinish;
5. ular xotirasiga tantanali ravishda qurbanliklar qilish.[4]

Konfutsiylikning asosiy maqsadi insonlar orasida ahillikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va axloki yuksak jamiyatni yaratishdir. Bu ta'limot Xitoyda uzoq vaqt davomida hukumatning falsafiy asoslaridan biri bo'lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

1. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. -T.: "Akademiya", 2007.-175-176-betlar.
2. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 180 b.
3. Hanifa Haydarova .Dinshunoslik . O'quv qo'llanma.
4. Dinshunoslik.Majmua. Shahrисabz 2024.
5. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
6. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
7. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
8. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
9. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ' //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
10. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
11. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
12. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
13. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O 'ZBEKISTON TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.
14. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
17. Ayonovna A. S. A. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO 'LLARI VA BOSQICHLARI //Farg'onadavlat universiteti. – 2023. – №. 6. – C. 136-136.